

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2024-yil 11-dekabr, chorshanba,
142 (24.019)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Farzandingizning qaysi kasb yoki ishga moyilligi borligini bilasizmi?

Konstitutsiya kunida sarhisob va rejalar haqida aytildi

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan tantanali marosim o‘tkazildi.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev tadbir qatnashchilari va ular timsolida barcha samarqandliklarni bayram bilan tabriklab, viloyatimizning iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlari va kelgusi rejalar haqida to‘xtaldi.

— Biz 2025-yil uchun oldimizga juda katta marralarni qo‘yganmiz, - deydi Adiz Boboyev. - Jumladan, aholi va tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlardan kelib chiqib, 4,1 milliard dollarlik 120 ta loyihani amalga oshirish imkoniyati aniqlangan. 2025-yilda hududiy dasturlar doirasida qariyb 2 milliard AQSh dollari miqdoridagi investitsiyani o‘zlashtirish hisobiga qo‘shimcha 1,2 trillion so‘mlik mahsulot ishlab



chiqarish hisob-kitob qilingan. Asosiysi, bu loyihalar viloyatimizning barcha tuman va shaharlarini qamrab olib, qo‘shimcha 20 ming ish o‘rni yaratilishiga xizmat qiladi.

Yangi Konstitutsiyamizning 47-moddasida har kim uy-joyli bo‘lish huquqiga egaligi, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi belgilab qo‘yilgan. Viloyat rahbari ta’kidlaganidek, joriy yil hududda bu yo‘nalishda katta natijalarga erishildi. Jumladan, 11300 xonadonli 182 ta uy qurilmoqda. Bu uylarning 77 tasi



Yangi O‘zbekiston massivlarida bunyod etilyapti. Ahamiyatlisi, hududlarda shunga mos infratuzilma, xususan, yangi maktab va bog‘chalar, tibbiyot muassasalari, bolalar maydonchalari va sport inshootlari, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish nuqtalari tashkil etilmoqda. Ayni sa’y-harakatlar natijasida aholining urbanizatsiya darajasi yil sayin oshmoqda.

— Yangi Konstitutsiya tibbiyot sohasida ham bir qator yangi imkoniyatlarni ro‘yobga chiqardi, - deydi viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Jamshid Jiyanov. – Xususan, joriy yilda mingta birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasasining moddiy-texnik ba’zasini yaxshilash uchun 20 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. To‘rtta tumanlararo perinatal markaz tashkil etildi. Bir million nafardan ortiq samarqandliklar skrining tadbirlariga jalb qilindi. Sohaga qaratilgan bunday e’tibor samarasi o‘laroq viloyat darajasida transplantatsiya va boshqa murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajarish imkoniyati yaratildi. O‘tgan vaqtda 25 ta buyrak, 3 ta suyak ko‘migi hujayralarining transplantatsiyasi muvaffaqqiyatli amalga oshirildi.

Tadbir samarqandlik taniqli san’atkorlar va yosh ijrochilar ishtirokida konsert dasturi bilan davom etdi.

Bu yilgi tadbirlar doirasida joylarda “Konstitutsiya ko‘chasi” tashkil etilib, ularda Bosh qomusimizga oid ko‘rgazmali vositalar joylashtirildi. "Konstitutsiya bilimdoni" ko‘rik-tanlovi, turli musobaqa va bellashuvlar tashkil etilmoqda.

Prezidentimiz 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida so‘zlagan nutqida Qozog‘iston va Tojikiston bilan ID-kartalardan foydalangan holda chegaradan o‘tish tizimini joriy etish rejalashtirilayotganini ma’lum qildi. Bu tashabbus haqida The London Post nashri kattagina tahliliy maqola chop etdi. Maqolada jumladan O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish va eng yaqin qo‘shnilari bilan hamkorlikni soddalashtirish bo‘yicha o‘zining strategik yo‘nalishini davom ettirayotganiga urg‘u berilgan. Bu tashabbus avvalroq Qirg‘iziston bilan 1-sentabrdan har ikki davlat fuqarolariga xorijiy pasportlar va vizalardan foydalanmasdan, faqat ID-kartalar bilan chegaradan o‘tish imkonini beruvchi o‘xshash tizim muvaffaqiyatli joriy etilganining mantiqiy davomi bo‘ldi.

Munosabat

O‘zbekiston Markaziy Osiyo integratsiyasiga faol ko‘maklashmoqda

Prezidentimiz o‘z nutqida mamlakatimiz tashqi siyosati konsepsiyasini yangilash zarurligini ta’kidladi. Bunda Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan sheriklik aloqalarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilishi zarurligini bildirdi. Bu sa’y-harakatlar umumiy iqtisodiy va madaniy makon yaratishga qaratilgan bo‘lib, ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik va xavfsizlikka tahdidlar kabi global muammolar sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilishi ham mamlakat taraqqiyoti uchun eng muhim masalalardan hisoblanadi. Bu bo‘yicha Qozog‘iston va Tojikiston allaqachon O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlariga aylangan. Prezident chegarani kesib o‘tishning soddalashtirilgan tartib-qoidalarining joriy etilishi tovar ayirboshlash hajmini oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratishini ta’kidladi. Raqamlarga qaraydigan bo‘lsak, 2023-yilda mamlakatimizning Qozog‘iston bilan tovar ayirboshlash hajmi 4,4 milliard dollardan oshdi, Tojikiston bilan esa 756 million dollarni tashkil etdi.

Davlat rahbari 2025-yilda mintaqaviy muammolarni muhokama qilish va birgalikdagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish uchun muhim maydonga aylanadigan “Markaziy Osiyo beshligi” formatidagi yig‘ilish o‘tkazilishini ma’lum qildi. Ushbu tadbir Markaziy Osiyoda tovarlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishini ta’minlaydigan, barcha ishtirokchilar uchun yangi imkoniyatlar ochadigan umumiy bozorni shakllantirish yo‘lidagi navbatdagi qadam bo‘ladi.

Tarixan O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarda yetakchi bo‘lib kelgan. Chegarani kesib o‘tishni soddalashtirish nafaqat iqtisodiy chora, balki ishonch va o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash yo‘lidagi qadamdir. Mamlakatning zamonaviy tashqi siyosati Toshkentning mintaqaviy hamkorlik va barqarorlikning harakatlantiruvchi kuchiga aylanish istagini aks ettiradi. Shu tariqa O‘zbekiston Markaziy Osiyo integratsiyasiga faol ko‘maklashmoqda. Savdoni rivojlantirish, xavfsizlik va madaniy hamkorlikni mustahkamlash bilan birga olib boriladigan yangi mintaqaviy kun tartibini belgilab bermoqda.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Abdulla A’ZAM, yozuvchi:
– Bugun insoniyat asteroid urilishidan ham, muzlik davridan ham kuchliroq bir sinov qarshisida turibdi: G‘arbcha madaniyat!

Mulohaza

Issiqlik va yorug‘lik kayfiyatni belgilaydi

Gap qish mavsumida xonadon va ishxonalardagi mo‘tadil havo hamda uzluksiz elektr energiyasi ustida borayotganligini hammamiz sezib turibmiz. Darvoqe, soha xodimlari har yili aprel oyidan keyin qishga tayyorgarlik ko‘ryapmiz, deb gapirishdan charchashmaydi. 4-5 oy davomida seminar va targ‘ibotdan tashqari yana nimalardir qilishadi, bizlarni rosa ishontirishadi. Ochig‘i, bunga ko‘nikib ham qoldik. Bu yil, hatto davlatimiz rahbari aynan xizmat ko‘rsatish sohalarini qishki mavsumga puxta tayyorlash masalasida 2-3 marta tahlil ham o‘tkazdi, soha xodimlariga real, aniq vazifalar topshirildi. Ammo...

Har gal birinchi qor yog‘ishida, birinchi sovuq kunlaridayoq sohadagi kamchiliklar ko‘zga tashlanib qoladi. Ikki oyoq bir etikka sig‘may qolganida maxsus guruhlar tuzilib, transport vositalari jalb qilinib, kamchiliklarni tugatishga kirishiladi: albatta, bir joyda ahvol yaxshilansa, ikkinchi joyda imkon yetmay qoladi.

Tabiiyki, chaqqonlar, ishbilarmonlar, hashamatli uy egalari hali-hamon o‘zlariga alohida elektr liniyalari, tabiiy gaz quvurlari tortib kelishdan voz kechgan emas. Biz bu ne’matlar narx-navosi ustida bosh qotirib, bahslashib vaqtni o‘tkazdik, ishlar esa amalda o‘z holicha qolaverdi. Shuning uchun ham bugun, qishning dastlabki kunlarida gaz va elektr ta’minotida kamchiliklar hali ko‘p ekanligi ko‘zga tashlanib qoldi. Misol uchun 7, 8-dekabr kunlari Samarqand shahrining anchagina qismida elektr energiyasida uzilishlar bo‘ldi. O‘chib-yonish har kun davom etyapti. Bunday tiqilinch paytda soha xodimlari hamma aybni eskirgan texnika vositalari va manbalarga noqonuniy ulanganlar zimmasiga tashlaydi. Hayronman, nima ular bugun paydo bo‘ldimi?

Bu hali qishning boshlanishi, sovuq avjiga chiqqanda nima qilamiz? Soha xodimlari issiq kunlarda bergan va’dalarini unutib qo‘yishmaydimi? Agar ahvol o‘nglanmasa, demak, ular yolg‘on gapirishgan va bu yolg‘onga albatta, jazo bo‘lishi kerak.

Darvoqe, xo‘jasizlik va o‘g‘irliklar xususida. Kamina nima uchundir aniqlangan bunday holatlar yuzasidan na soha idoralari saytida, na boshqa ommaviy axborot vositalarida aniq faktlarni ko‘ryapman.

Albatta, elektr energiyasi va tabiiy gazni asrash, iste’molchiga to‘g‘ri yetkazib berish soha xodimlarining vazifasi. Biroq hozirgi sharoitda, biz ko‘rib turgan vaziyatda bu ish bilan hokimliklar ham, mahalla ham, oqsoqollar ham shug‘ullanishi kerak. Toki ongu shuurimizda gaz va elektr energiyasi eng avvalo, odamlarning kayfiyati, siyosatimizga ishonchi ekanligini unutmaylik. Issiq va yorug‘ uyda fikrlar ham tiniq bo‘ladi. Butun kuchni ana shu muhitni yaratishga sarflashimiz zarur.

Ismat KO‘CHIYEV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik

qog‘ozlardami yo haqiqat: oydinlik fursati yaqin

Aslida mavsumga tayyorgarlik o‘z o‘zidan bo‘lmaydi. Masala yuzasidan Vazirlar Mahkamasining joriy yil 6-iyuldagi qarori bilan kuz-qish mavsumini betalafot o‘tkazish, iste’molchilarga yoqilg‘i resurslarini yetkazib berish hamda energiya resurslarini iqtisod qilish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

XO‘SH, BU VAZIFALAR QAY DARAJADA BAJARILDI?

Ma’lum qilinishicha, aholidan kelib tushadigan murojaatlarni tezkor hal etish maqsadida viloyat hokimining tegishli farmoyishiga asosan kommunal, ijtimoiy soha va boshqa tegishli tashkilotlar vakillaridan iborat kunu tun ishlaydigan viloyat, shahar va tuman shtablari tashkil etilgan. Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan avariya holatlarni tezkor bartaraf etish maqsadida kommunal soha tashkilotlarida zaruriy asbob-uskunalar zaxirasi yaratilib, avariya brigadalari shay holatga keltirilgan.

ELEKTRDA MUAMMO BO‘LMAYDI(MI?)

Ochiq ma’lumotlarda sohalar kesimida mavsumga har tomonlama tayyorgarlik ko‘rilgani qayd etilgan. Misol uchun, joriy yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida viloyatda rejadagi 3004 o‘rniga 3052 kilometr elektr uzatish tarmoqlari, 1243 dona transformator punkti mukammal ta’mirlangan.

Bundan tashqari, oktabr-dekabr oylari uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasiga asosan, 2 ta 63000 kValik, 8 ta 40000 kValik va 2 ta 16000 kValik katta quvvatli kuch transformatorlari o‘rnatilib ishga tushirilgan hamda 166 ta har xil quvvatli transformatorlar, 12696 ta temir-beton ustunlar, 684,7 kilometr havo tarmoqlari yangidan qurilgan.

Mavsumni betalofat o‘tkazish va avariyalarni tezkor bartaraf qilish uchun turli quvvatdagi 56 dona transformator, 18 tonna sim va 60,2 kilometr kabel, 2000 dona ustun, 60 tonna transformator moyi va boshqa zarur vositalar zaxirasi yaratilgan.

TABIIY GAZ BO‘YICHA HAM SHU GAP

Rost, mavjud ma’lumotlar va berilayotgan hisobotlar shu qadar jozibaliki, joriy yilgi mavsumda hech qanday g‘alva bo‘lmasligiga beixtiyor ishonib ketasiz. Zotan, ko‘p qavatli uy-joylarning 34 ming kvadrat metr tom qismi, 60 tasining fasadi, 95 ta yerto‘lasi va 3300 ta elektr shitlari, shuningdek, 106 ta ijtimoiy soha obyektlari ta’mirlangan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 44 ta gaz taqsimlash qurilmasi, 12 kilometr gaz tarmoqlari mukammal (joriy ta’mirlarni mayli, hisobga olmang) ta’mirlangan.

Zaxira ham chakkimas: 712 metr quvur, 270 kilogramm karbid, 3400 dona gaz ballon.

Albatta, har ikki sohadagi ishlarni yaxshi yoki yomon deyish fikridan yiroqmiz. Aksar hollardagi singari xulosani o‘quvchilarga qoldirish niyatimiz ham yo‘q. Negaki, o‘tayotgan har bir kun tobora harorat tushib borayotganini ko‘rsatib turibdi. Demak, hisobotlarga, mutasaddilarning mas’uliyatiga baho uzoq emas, yaqin kunlarda aniq bo‘ladi.

Muddaomiz esa shu - o‘sha vaqtda hech kim yer chizib qolmasin!?

KO‘MIR KO‘P...

Yaqinda imtiyozli narxlarda tarqatilishi lozim bo‘lgan ko‘mirni sotayotgan ombor mudiri va qorovuli ushlandi. Unda ombor mudiri J.P. soxta hujjatlarni rasmiylashtirib, ehtiyojmand oilalarga imtiyozli narxlarda tarqatilishi lozim bo‘lgan 50 tonna ko‘mirni A.A.ga 37,5 million so‘mga sotishga kelishib, shundan 13,2 tonna ko‘mirni ombor qorovuli X.J. yordamida yetkazib berib, kelishilgan pullar hisobidan 28 million so‘mni olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatdagi 8 ta ko‘mir ombori va 4 ta shoxobchasida yetarlicha zaxira yaratilgan. Shu kungacha aholiga 82 ming tonna yoki rejaning 50 foizidan ko‘proq ko‘mir yetkazib berilgan. Bu hol balki yuqoridagi kabi qing‘irliklar oqibatidir degan fikr uyg‘otadi. Qolaversa, budjet tashkilotlariga 64 ming tonna, aniqrog‘i, 100 foiz ko‘mir yetkazib berilganiga shubha tug‘diradi.

RESURSLAR IQTISOD QILINADI

Yana bir muhim masala - energiya resurslarini iqtisod qilish bo‘yicha ham amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, mavsum boshidan beri 650 million kVt soat elektr energiyasi hamda 156 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilingan.

Iqtisod qilingan elektr energiyasining 84 million kVt soati quyosh panellari o‘rnatish hisobiga to‘g‘ri kelgan.

Jumladan, aholi xonadonlarida 22 million, ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralarida 17 million, tadbirkorlik subyektlarida 45 million va yangi qurilgan ko‘p qavatli uy-joylarning tom qismida 500 ming kVt soat quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatilgan.

ISSIQLIK TA’MINOTI...

Oktabr-dekabr oylari uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasi asosida davriyligi 70 kundan oshgan 16078 ta iste’molchiga suyultirilgan gaz mahsuloti yetkazib berilgan.

Ha, aslida bu oddiy hol - 16 mingdan ortiq iste’molchi 70 kun gaz ballonini almashtirolmagan. Lekin qaysi mutasaddi, qachon bu rost ekanligini tan olgan. Yo‘q, hamma gap shunda - muammo aniq, lekin u esga olinmaydi. U haqda gapirilmaydi.

Ko‘p qavatli uylarni issiqlik bilan ta’minlash bo‘yicha... qo‘ying, yaxshisi bu haqda yozmaylik. Shusiz ham hammasi ayon-ku!

Y.MARQAYEV.





“MAHALLA BUDJETI”: MAQSAD, IMKONIYAT VA NATIJALAR

Yaqin-yaqingacha mahallalarda moliyaviy va ma’muriy resurs mavjud emas edi. Hatto ijtimoiy himoyaga muhtojlarga moddiy yordam ajratish ham besh bosqichdan iborat uzoq jarayonni talab qilgan. Bu esa mahalla instituti faoliyatining samaradorligi va mustaqilligiga salbiy ta’sir qilib, faollarning “homiy” izlashi, aniqrog‘i, tadbirkorlar oldida izza bo‘lishiga olib kelardi. 2022-yilda eksperiment tariqasida soliqlarni undirish ko‘rsatkichi past bo‘lgan tumanlarda, xususan, viloyatimizdan Urgut tumanida yo‘lga qo‘yilgan va joriy yilning 1-yanvaridan barcha tuman va shaharlarda joriy etilgan “Mahalla budjeti” tizimi ayni muammoning yechimi bo‘lishi kutilmoqda. Xo‘sh, yangi tizim qanday ishlaydi? U orqali mahallalar moliyaviy mustaqillikka erishadimi? Maqolada shu va boshqa savollar atrofida ma’lumot to‘plashga harakat qildik.

“MAHALLA BUDJETI” O‘ZI NIMA?

Mazkur loyihaning maqsadi mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish, xususan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘ini yig‘ish ko‘rsatkichlarini oshirish orqali yangi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilishdir. Soddaroq qilib aytganda, mahalla faollari bungacha ham aholidan mol-mulk va yer solig‘ini yig‘ish ishlariga bosh-qosh bo‘lgan bo‘lsa, endi ularning ayni xizmati uchun soliqlarning bir qismi mahallaning o‘zida qoladi.

Mazkur tartib ilk marta 2022-yilda eksperiment tariqasida yo‘lga qo‘yilib, “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori bilan yanada takomillashtirildi.

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, jamg‘armalar yuridik shaxs hisoblanmaydi va har bir mahalla huzurida tashkil etiladi. Uning mablag‘lari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturarjoylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizi, mahalla idoralari orqali ko‘rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig‘imning 10 foizi hisobidan shakllantiriladi. Bundan tashqari, mahalladagi hududi 2000 kvadrat metrgacha bo‘lgan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini hokim yordamchisining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan, mahallaning mol-mulkini belgilangan tartibda ijaraga berishdan olinadigan mablag‘lar ham mazkur jamg‘armaga tushadi. Unga mahalliy budjet prognozining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan, xorijiy va xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning texnik ko‘mak mablag‘lari va grantlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan mablag‘ ajratilishi ham mumkin.

Jamg‘arma mablag‘laridan mahalla fuqarolar yig‘ini kengashi qarori asosida foydalaniladi.

MABLAG‘ TALON-TAROJ BO‘LMAYDIMI?

Bu ko‘pchilikning xayoliga keladigan asosiy savollardan biri. Jamg‘arma mablag‘ini qanday ishlatish mahalla faollarining ixtiyorida ekan, u manziliga yetib bormasligi ham mumkin-ku.

To‘g‘ri, jamg‘arma mablag‘lari mahalla ehtiyoji uchun ishlatiladi, lekin undan foydalanish uchun bir kishi emas, “ettilik” roziligi zarur. Uning ichida profilaktika inspektori ham bor. Jarayonda adolatni ta’minlashda o‘zaro tiyib turish tamoyili ishlaydi.

Yaqinda viloyatdagi mahallalardan birining raisidan jamg‘armadagi mablag‘ni qanday maqsadda ishlatyapsiz, deb so‘raganimizda, “Bu pulni ishlatish qiyin ekan. Kengash qarorini chiqarish, smeta qilish, hisobot yozish kerak. Yaxshisi, tadbirkorlarimga aytaman, keragidan ortig‘i bilan tashlab ketadi”, deya javob bergan edi. Aynan shu javob yuqorida aytilgan fikrning amaliy isboti. Agar mablag‘ aniq maqsadga va hisob-kitobli yo‘naltirilsa, muammo yo‘q. Nizomga ko‘ra, buning uchun mahalladan faqat mahalla uyushmasiga asoslovchi tegishli hujjatlarni (fuqarolar yig‘ini kengashi qarori va boshqa hujjatlar) ilova qilgan holda talabnoma taqdim etish talab qilinadi. Xalq pulining hisobi borligi, jarayon shaffofligi ayrimlarga yoqmayotganligi bor gap.

Hujjatda jamg‘arma mablag‘larini qaysi yo‘nalishlarga sarflash mumkinligi ham aniq belgilab qo‘yilgan. Bunga:

- mahalla hududidagi ichki yo‘llar, piyodalar yo‘lakchalari, yoritish tizimi, elektr energiyasi hamda tabiiy gaz tarmoqlari, ichimlik va oqova suv tizimini ta’mirlash va tiklash;
- mahalla fuqarolar yig‘ini binosi, mahalla hududida joylashgan sport maydoni, nuroniylar choyxonasi, yoshlar markazi, bolalar maydonchasi, kutubxona, madaniyat markazini qurish, mukammal va joriy ta’mirlash hamda ularni inventar, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa uskunalar bilan jihozlash;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashish hamda ularning turarjoylarini ta’mirlash va jihozlash;
- mahalla hududida infratuzilmani rivojlantirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish va boshqa tadbirlar kiradi.

UNDAN KIM, QANDAY FOYDALANYAPTI?

Shaffoflik masalasiga kelsak, “Mahalla budjeti” tizimi O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq budjet” portaliga ulangan. Bu platformada fuqarolar o‘z mahallasi jamg‘armasiga tushgan mablag‘ va uning qanday maqsadda sarflanayotganini kuzatib borishi, bir so‘z bilan aytganda, jarayon ustidan to‘liq jamoatchilik nazoratini o‘rnatishi mumkin.

Joriy yilning 25-noyabr holatidagi ma’lumotga ko‘ra, respublika bo‘yicha jamg‘armalarga jami 327,7 milliard so‘m tushgan bo‘lib, shundan 143,2 milliard so‘mi sarflangan. Viloyatimiz misolida aytadigan bo‘lsak, tushum 42,1 milliard so‘mni, xarajat esa 17 milliard so‘mni tashkil qilmoqda. Ahamiyatlisi, tushumning 3,8 milliard so‘mi mahalliy budjetning qo‘shimcha mablag‘lari hisobidan.

Xo‘sh, 17 milliard so‘m qayerga sarflandi? Xarajatlar ko‘rsatkichida eng ko‘p mablag‘ mahalla fuqarolar yig‘ini binosini jihozlash uchun (8,8 milliard so‘mdan ortiq) sarflanganini ko‘rish mumkin. Keyingi o‘rinlarda mahalla infratuzilmasini rivojlantirish (4,8 milliard so‘m), yoritish tizimi va elektr energiyasi ta’minotini yaxshilash (2 milliard so‘m) va boshqa xarajatlar turibdi.

— Mahallamiz markazdan uzoqda joylashgan, - deydi Ishtixon tumanidagi Qiyot mahallasi raisi Tolliboy Norqulov. – Shu bois tadbirkorlik rivojlanmagan. Yaqingacha mahalla farovonligi bilan bog‘liq biror xarajatli ish chiqsa, mablag‘ni qayerdan olishni bilmay boshimiz qotardi. Mana, muammo hal bo‘lyapti. Bugungacha jamg‘armamizda 57 million so‘mdan ortiq mablag‘ yig‘ildi. Mahalladoshlar bilan kengashib, uning 30 million so‘miga mahalla idorasiga quyosh panellarini o‘rnatishga qaror qildik. Bu orqali binoda tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan o‘ndan ortiq xotin-qizlar uchun ham qulay sharoit yaratiladi.

Oqdaryo tumanidagi Amir Temur mahallasi 8 ta qishloqdan iborat, 6400 nafardan ortiq fuqaro istiqomat qiladi. Hududdagi eng katta muammolardan biri elektr ta’minotidagi uzilishlar. Yaqinda mahalla faollari jamg‘armaning 40 million so‘m mablag‘iga 31 ta beton ustun xarid qilib, bir nechta ko‘chasiga o‘rnatdi.

— Bungacha mahallaning xarajatli ishi ikki yo‘l bilan hal bo‘lar edi, - deydi mazkur mahalla raisi Xusniddin Egamqulov. – Biri, “Open budjet”da yutish, ikkinchisi, raisning tadbirkorlar oldida izza bo‘lishi. Ochiq, ammo achchiq haqiqat shu. “Mahalla budjeti” tizimi yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Mahallamiz misolida aytadigan bo‘lsam, tashabbusli budjetda yutib ololmagan loyihamizni mahalla budjetidan bajarishga kirishdik. Fuqarolar ham bundan xursand.

Aytish joizki, jamg‘armalarda ishlatilmay qolgan mablag‘ saqlanadi. Ya’ni, mahallangiz bu yil undan foydalanmagan bo‘lsa, kelasi yil ko‘proq mablag‘ bilan kattaroq loyihani amalga oshirish imkoniyati bor.

Asqar BAROTOV.

Og‘ir ahvoldagi bozorlar obod bo‘lyapti

Joriy yilning 15-oktabr kuni viloyat hokimligida o‘tkazilgan muhokama yig‘ilishida eng yomon holatdagi dehqon bozorlarning yo‘laklari hamda avtoturargohlarini betonlash va asfaltlash bo‘yicha topshiriq berilgandi. Viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi va tuman-shahar hokimliklari mas’ullari tomonidan ushbu topshiriq ijrosi qay darajada ta’minlanyapti? Shu savolga javob topish maqsadida ayrim bozorlarda bo‘ldik.



2,78 gektar maydondan iborat “Past Darg‘om meva-sabzavot dehqon bozori” hududi to‘liq betonlashtirilgan.

- Bozorimizda 152 ta savdo do‘koni, 672 o‘rinli rastalar hamda poliz mahsulotlari sotiladigan 2 ta ayvon mavjud, - deydi jamiyat bosh hisobchisi Ozod Bozorov. – Shuningdek, arzonlashtirilgan savdo yarmarkasi uchun maxsus yengil konstruksiyali bino qurilgan. Bozor atrofidagi 4650 kvadrat metr maydon asfalt qilingan va 800 kvadrat metr piyodalar yo‘lagi, 350 metrlik ariq, bozor ichidagi yo‘laklar, 4880 kvadrat metr avtoturargoh betonlashtirildi.

Sotuvchilar va xaridorlar uchun qulay sharoitlar yaratib berilyapti. Ammo bozor atrofidagi yo‘ldan o‘tib-qaytayotgan haydovchi va yo‘lovchilarni qiynayotgan bir masala bor. Bu – tirbandlik.

- Ayni paytda bozorga qarashli avtoturargohda asfaltlash ishlari ketyapti, - deydi O.Bozorov. – Shu sababli ko‘chada tirbandlik hosil bo‘lgan. Bu ishlar yakuniga yetgach, avtoturargoh 200 dan ziyod avtomashinani o‘z ichiga sig‘diradi.

Keyingi manzilimiz “Nurobod dehqon bozori”ning Sarikul filiali bo‘ldi. Chekka hududda joylashgan ushbu bozor filiali haftada bir kun, bor-yo‘g‘i 2-3 soat davomida faoliyat olib borar ekan.

Avvalo, bozorda savdo qiladigan tadbirkorlarning fikrini bilishga qiziqdik. Ayrimlari mavjud imkoniyatlarning boriga shukur qilib savdo qilyapti, ba’zilari esa...

- Shu bozorda 20 yildan beri savdo qilaman, - deydi ularning biri. – To‘g‘ri, bozorning ayrim joylari betonlashtirilyapti. Ammo yozda issiqdan, qishda yog‘ingarchilikdan himoya qiladigan ayvonlarga ehtiyoj katta. Bu muammo hal etiladimi, yo‘qmi, bilmadim.

- Samarqand tumanida yashayman, - deydi Sharifa Esoyeva. - 15 yildan beri Nurobod tumanidagi katta-kichik bozorlarda savdo qilib kelaman. Haftaning juma kuni shu bozorga kelaman. To‘g‘risi, shu paytgacha umuman sharoit yo‘q edi. Turadigan joyimiz yozda chang, yog‘ingarchilik paytida loy bo‘lardi. Bugungi kunda bozor hududining bir qismi betonlashtirilib, rastalar qurildi. Bu yaxshi albatta, endi quyosh nuri va qor-yomg‘irdan pana bo‘ladigan ayvonlar qurilsa, o‘zimiz bilan birga olib keladigan, ortiqcha yuk bo‘ladigan soyabonlarga ehtiyoj qolmaydi.

- Bozorimiz 7 ta filialdan iborat, - deydi “Nurobod dehqon bozori” rahbari Elbek Xolboyev. - Aholi tarqoq joylashgani uchun ham shunday kichik-kichik filiallar xizmat ko‘rsatadi. Bozorning jami hududi 3,3 gektar bo‘lib, eng katta filialimiz Sarikul. Hududi 1,5 gektarni tashkil etadi. Imkoniyatimizdan kelib chiqib, bita ayvon qurganmiz. Tadbirkorlar hisobidan do‘konlar ham qurilgan. Filialning 1000 kvadrat metr maydoniga beton qoplamasi yotqizildi. 200 o‘rinli rasta qurildi va ularda savdo qiladiganlar uchun sharoit yaratish maqsadida ikkita ayvon barpo etilishi rejalashtirilgan.

Nurobod adirliklarida joylashgan yana bir bozorda olib borilayotgan betonlashtirish ishlari bilan tanishdik.

- Tumanning Kech keldik mahallasida yashaymiz, - deydi Boyxo‘roz Botirov. – Bir paytlar biz yashaydigan yaqin hududda bozor yo‘q edi. Aholi ro‘zg‘origa nimadir kerak bo‘lsa, Kattaqo‘rg‘on shahriga yoki Past Darg‘om tumaniga borishga majbur edi. Bolaligimda otam bilan bozorga borardim. Ulovimiz bir telejkali traktor bo‘lardi. Qishloqning o‘nlab odamlari shu transport vositasida bozorga qatnardi. Bozorlik qilib bo‘lgach, traktorchining ishi bitishini kutardik. Buning uchun ko‘pincha soatlab vaqt ketardi. Yog‘ingarchilik va issiqdan himoyalanish uchun telejkaning tagida o‘tirardik. Olgan oziq-ovqat mahsulotlarimizning ayrimlari uyga yetib kelguncha aynib, sifati buzilib qolardi. O‘shanda “Katta bo‘lsam, qishlog‘imda bozor quraman”, deb orzu qilganman.

Yillar o‘tib, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Boyxo‘roz Botirovda bolaligidagi orzusini amalga oshirish imkoniyati tug‘ildi. Uning tashabbusi bilan Nurbuloq qo‘rg‘oni hududida “Yaxshi niyat, farovon hayot” dehqon bozori tashkil etildi va unga o‘zi rahbarlik qila boshladi. Qo‘rg‘onda aholi ko‘payib, infratuzilmalar yaxshilanib, bu bozor torlik qila boshladi. Natijada uning o‘rni zamonaviy turarjoylar qurilishi uchun bo‘shatib berilib, bozor uchun chekkaroq hududdan, ya’ni adirlikdan 3,5 gektar maydon ajratildi.

- Hudud cho‘ldek qaqrab yotgandi, - deydi u. - Bu yerda bozor bo‘lishiga hech kim ishonmasdi. Tavakkal qilib, bozorni ko‘chirib keltirganimizdan keyin asta-sekin hudud obod bo‘la boshladi. 2020-yilda rasman ish boshladik. Odamlar ham bozor yaqinida uy qurib, ko‘chib kela boshladi. Atrofidan turli savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalari tashkil etilyapti. Dasht qishloqqa aylandi, qishloq shaharcha ko‘rinishiga keltirilyapti. Bugungi kunda 1 gektar maydonda dehqon bozori, 50 sotix yerda mol bozori faoliyat ko‘rsatyapti. Bozorga ajratilgan hududning qolgan qismi bo‘sh turibdi. Ammo soliqlarini vaqtida to‘lab kelyapmiz. Kelajakda bozorimizni kengaytirish niyatimiz bor.

Bu hududda bozor faoliyat boshlaganiga hali ko‘p bo‘lmagan, ammo bir muncha qurilish bunyodkorlik ishlari amalga oshirilganiga guvoh bo‘ldik.

- Dehqon bozori hududining deyarli yarmi betonlashtirilgan, - deydi B.Botirov. – 200 o‘rinli zamonaviy savdo rastasi va ikkita ayvon bunyod etilgan, yana ikkita ayvon qurilishiga hozirlik ko‘rilyapti. Joriy yilning 15-oktabridan shu paytga qadar 2 ming kvadrat metr maydonga beton yotqizdik. Kundan-kunga sotuvchilar va xaridorlar uchun sharoitlarni yaxshilashga harakat qilyapmiz.

Viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, 18-noyabrga qadar viloyatdagi 52 ta dehqon bozorida qariyb 63 ming kvadrat metr maydonga asfalt va salkam 100 ming kvadrat metr maydonga beton qoplamasi yotqizilgan. Bosqichma-bosqich davom etadigan ishlar samarasida ko‘rsatkichlar yanada ortib borishi kutilyapti.

To‘lqin SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Ishda qarindosh-urug‘chilik bo‘lmasligi kerak

“Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammo” - bu iboraga aylanib ulgurayozgan gapni mavzuga oid har bir tadbirda eshitamiz. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, o‘zi “dushman”imizni taniymizmi? Ko‘pchiligimiz uchun odatiy hol bo‘lgan suyunchi puli, haq berish, rozi qilish, hatto, ortiqcha iltifot ham korrupsiya ekanligini bilasizmi?

Mazkur illat va unga qarshi kurashishni qayerdan boshlash kerakligi haqida yetarli tushunchaga ega bo‘lmay turib, “Biz korrupsiyaga qarshimiz!”, deyishdan naf kam.

Ha, korrupsiyaning “yuzi” ham, “cho‘nta”gi ham ko‘p. U yuqorida tilga olingan holatlar bilan chegaralanib qolmaydi. Masalan, nepotizm, ya’ni qarindosh-urug‘lik ham uning ildiziga suv quyadi.

Nepotizm o‘z qarindoshlari va do‘stlarining kasbiy malakasidan qat’i nazar, xizmat pog‘onasini ko‘tarish uchun mansabdan foydalanishdir. Yana bir ta’rifi - qarindoshlar va urug‘larga rasmiy homiylik qilish. Bugun aksariyat rivojlangan jamiyatlarda unga salbiy munosabat shakllanib ulgurgan. Ular biror lavozimga tayinlash ariza beruvchining bilimi, tajribasi, kasbiy fazilatlariga emas, balki uni ishga qabul qilgan shaxsga yaqinligidan kelib chiqqan holda amalga oshirilsa, bunday shaxs butun tizimning faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini yaxshi biladi. Tanganing ikkinchi tomoni ham yomon, ya’ni yaxshi lavozimlarning shu tartibda “band” qilinishi sohaga malakali kadrlarning kelishiga to‘siq bo‘ladi. Salohiyatsiz kadrlar yig‘ilgan joyda esa kadrlar qo‘nimsizligi yuzaga keladi.

Nepotizmning yana bir zarari shundaki, u korrupsiyaning tarqalishiga yordam beradi. Chunki qarindoshlik va do‘stlik aloqalari korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni yashirishga zamin bo‘ladi. Bularning barchasi manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaradi.

Favoritizm ham nepotizm bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur ibora yuqori martabali odamning ishonchidan bahramand bo‘lgan va tanlangan pozitsiyasi tufayli uning qarorlariga ta’sir qiladigan va martaba zinapoyasida yuqoriga ko‘tarilgan kishiga



aytiladi. Bunga “do‘stlik” va “qabilachilik” tushunchalari ham ma’no jihatdan juda yaqin.

Masalaning murakkabligi shundaki, bu jarayonlarning ildizlari insonning tabiatidan kelib chiqadi. Ya’ni, har kimda yaqinlariga yordam berish va ularga g‘amxo‘rlik qilish istagi yotadi. Shuning uchun ulardan to‘liq qutulish qiyin. Masalan, qonunchiligimizda qarindosh-urug‘chilikka qarshi kurashish bo‘yicha muayyan qoidalar mavjud bo‘lsa-da, rahbar o‘zi ishlayotgan sohada aloqalarga ega bo‘lsa, cheklovni aylanib o‘tishi mumkin. Va bu cheklov uzoq qarindoshlar (nabira, jiyan yoki ota-onalarning turmush o‘rtoqlari) va do‘stlarga taalluqli emas. Agar barcha holatlarni qamrab olgan cheklovlar kiritilsa, jarayon butunlay aks natija berishi ham mumkin.

Shunday ekan, bugungi kunda nepotizm va uning yuqorida tilga olingan ko‘rinishlariga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri davlat xizmatchilarining rotatsiyasi - davriy almashtirilishi instituti hisoblanadi. Shuningdek, unga jamiyatning o‘zida murosasizlik kayfiyatini shakllantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kerak.

Unutmaylik, korrupsiya va u bilan bog‘liq jinoyatlarni begonalar emas, o‘z oramizdan chiqqan, shu jamiyatda tarbiya topgan “yaqin”larimiz sodir etyapti. Befarqligimiz bor ekan, muammo ildiz otishda davom etadi.

T.MAMATOV,
Qurolli Kuchlar kichik mutaxassislarini tayyorlash markazi katta o‘qituvchisi,
N.MAMATOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti o‘qituvchisi.

"Ona tili" darsida o‘quvchilar bilan "Otlarning yasalishi" mavzusini o‘rganayotgan chog‘imizda "kurak" so‘zi haqida ma’lumot berayotgandim, dabdurustdan bir o‘quvchi: "Ustoz, kurak nima?" deb so‘rab qoldi. Men avval bu kutilmagan savoldan hayron bo‘lsam-da, unga kurak tom va supalarni qordan tozalashda ishlatiladigan ish quroli ekanligini tushuntirdim. Biroq bola nega shu oddiy buyumning nima ekanligini bilmasligi sababi haqida o‘yladim. Boshqa joylarni bilmadim-u, bizning tog‘li tumanimizda ilgari judayam ko‘p qor yog‘ardi. Kech kuzdan erta bahorgacha yer yuzasi qor bilan qoplanib, qor kurashdan bezor bo‘lib ketardik. Urgut bozorining bir chekkasida qish kunlari kurak sotadigan usta-sotuvchilar bo‘lardi. Tomlardan qorni kurab, ustiga sakrab tushardik. Tor ko‘chalarda uylarning soyasidagi qorlar bahorgacha erimay yotardi. Ko‘cha va tepaliklarda chana uchib, uyga egni-boshimizni shalabbo qilib qaytganlarimiz shirin xotira bo‘lib qoldi.



TABIAT ning tabiati NOZIK

Endi hatto bizning tog‘ etagidagi qishlog‘imizga ham qor deyarli yog‘may qo‘ydi. Hamma tomlar tunuka va shifer bilan qoplandi. Kurakbozorning tugab ketganiga ancha yillar bo‘ldi. Qishloq ham avvalgi qiyofasini yo‘qotib, allaqachon boshqa guzarlar bilan qo‘shilib, kichik shaharchaga aylandi. Hozir to‘y-ma’raka kunlari ko‘chalarda mashinalar tiqini paydo bo‘layotganligini, qishloqdoshlarimiz tamaddunning oxirgi yutuqlaridan ham keng foydalanayotganlarini aytsam, bemalol ishonavering. Haqiqatan yer yuzasi o‘ziga xos shaharga aylanib bormoqda. Insoniyatning xo‘jalik faoliyati natijasida ona sayyoramizdagi ekotizim tobora qisqarib, global isish jarayoni yildan yilga tezlashmoqda. Atmosferaga chiqayotgan zararli gazlar issiqxona hodisasini paydo qilib, havo haroratining har yili oz-ozdan ko‘tarilishiga sabab bo‘layotir.

Ommaviy axborot vositalari yaqinda yana bir tashvishli xabarni tarqatdi. Ma’lum bo‘lishicha, global isish jarayoni qaytarilmas bosqichga kirib ulguribdi. Bu shuni anglatadiki, endi dunyo miqyosidagi xatarli harakatni to‘xtatib bo‘lmaydi. Olimlarning fikriga ko‘ra, u biroz sekinlashtirilsa ham bu insoniyatning juda katta yutug‘i hisoblanar ekan.

Endilikda qorlar yog‘may qo‘ydi. Bu degani yog‘ingarchilik kamaydi degani emas, aksincha, qish va bahorda yomg‘ir yog‘ishi ko‘payganligini ko‘ryapmiz. Shu yil bahorda uzoq davom etgan yog‘ingarchilik xalqimizga qancha tashvish keltirganiga barchamiz guvoh. Masalan, bu yil yoz bo‘yi qishlog‘imiz osmonini bulutlar deyarli tark etmadi. Tabiatshunos olimlarning fikricha, sayyoramiz yuzasidagi haroratning atigi bir daraja ko‘tarilishi ham okean va dengizlarda suv bug‘lanishini yanada kuchaytirar ekan. Oqibatda havoga ko‘tarilgan suv yog‘ingarchiliklarni sezilarli miqdorda ko‘paytiradi. Eng yomoni: bu jarayon hamma joyda bir tekis bo‘lmay, yer kurrasining yuqori kengliklarida kuchliroq kecharkan. Janubiy mintaqalarda esa qor va yomg‘ir kamayib, cho‘llanish jarayoni yana-da tezlashar emish. Nimayam derdik, global isish oqibatida ro‘y berayotgan voqealarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib, qulog‘imiz bilan eshityapmiz. Internet tarmog‘i jahonda ro‘y berayotgan tabiiy ofatlar haqida har kuni bir-biridan tashvishli xabarlarni tarqatmoqda. Turli suv toshqinlari, tayfunlar, tornadolar va boshqa tabiiy ofatlar haqidagi xabarlar ko‘paygandan ko‘payib bormoqda. Birgina shu yilning o‘zida Xitoy, AQSh, Rossiya, Germaniya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda anomal yog‘ingarchiliklar natijasida kuchli suv toshqinlari ro‘y berdi. Hatto yomg‘ir anqoning urug‘i bo‘lgan Arabiston tog‘lari ham davomli yog‘ingarchiliklardan keyin yam-yashil maysalar bilan qoplandi. Ko‘p joylarda suv to‘g‘onlari buzilib, shaharlar, qishloqlar, ekinzorlarni suv bosdi. Davlatlar va xalqlar bundan katta iqtisodiy zarar ko‘rishdi. Ilmiy taxminlarga qaraganda, bunday noxush hodisalar bundan keyin yana-da ko‘payadi.

BMT qoshidagi Xalqaro meteorologiya tashkiloti matbuot kotibi Kler Nullisning Jeneva shahrida bo‘lib o‘tgan matbuot anjumanida bergan ma’lumotiga ko‘ra, iqlim o‘zgarishlari, ayniqsa, Antarktidada juda kuchli sezilmoqda. Ushbu qit’adagi o‘rtacha harorat keyingi yarim asrda Selsiy shkalasi bo‘yicha uch darajaga iligan. Buning oqibatida Antarktida muzliklarining erishi 1979-yildagiga nisbatan olti marta tezlashgan. Sayyoramiz chuchuk suv zaxirasining 90 foizi shu qit’ada ekanligini e’tiborga olsak, undagi asriy muzliklarning kamayishi qanaqa xunuk oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilish mushkul. Yer sharining qarama-qarshi tomonida joylashgan Arktikadagi holat ham bundan yaxshi emas. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, Arktikada yozgi harorat +18°, ayrim yillarda esa +19,5° darajagacha ko‘tarilib borgan. Buning natijasida Shimoliy muz okeanida ham kemalar qatnamoqda. Ammo uning zararli jihatlari olimlarni chuqur o‘ylantirmoqda. Bunday vaziyat Shimoliy qutbning ramziy timsoli bo‘lgan oq ayiqlarning hayot kechirishini tobora mushkullashtirmoqda.

Grenlandiya orolidagi muzliklarning erish jarayoni tobora tezlashmoqda. Eng ajablanarlisi shundaki, tabiatning ushbu salbiy fenomenidan sevinayotganlar ham topiladi. Masalan, rossiyalik ayrim olimlar global isish jarayoni Rossiya iqlimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini bashorat qilmoqda. Ularning fikriga ko‘ra, iqlim o‘zgarsa, Rossiya mo‘tadil iqlimli mintaqaga aylanib, qishloq xo‘jaligi yanada rivojlanarmish. To‘g‘ri, bir kun kelib, Sibirda tarvuz ekilsa, ajab emas. Ammo muzlagan yerlar ustida tiklangan shaharlarning ahvoli ne kechadi? Asriy muzliklar erisa, yer ostida million-million yillardan buyon yig‘ilib yotgan metan gazlari atmosferaga chiqadi. Shundoq ham chorvachilikning rivojlanishi oqibatida havo tarkibida metan ko‘payib borayotgan ekan. Bu gaz miqdori yanada oshsa, issiqxona effekti hozirgidan ham ko‘ra kuchayishi aniq, deyishmoqda olimlar. Demak, bundan xursand bo‘lishga hech qanaqa asos yo‘q. Aksincha, suyunmasdan, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda jahon hamjamiyatiga yaqindan ko‘maklashish zarur.

Gazetxonlarimizning yodida bo‘lsa, avvalgi yillarda ozon qatlamining yupqalashuvi oqibatlarini tugatishda xalqaro hamjamiyat bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilgandi. Natijada janubiy yarim shar osmonida paydo bo‘lgan ozon teshigi yana butlanib, tashvish biroz chekingan edi. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishidek real xatar yana insoniyat boshiga soya solmoqda. O‘sha yillarda barcha davlatlar freon hosil qiluvchi vositalardan voz kechib, chinakam birdamlik namoyish etishgandi. Xalqaro Kioto shartnomasini imzolagan mamlakatlar bu borada faol sa’y-harakat qilishgandi. Keyingi yillarda imzolangan Parij shartnomasi asosida keng harakat boshlashni hayotning o‘zi talab qilib turibdi. Aks holda sayyoramizdagi vaziyat keskin o‘zgarib, kelajakda birtalay hal qilib bo‘lmaydigan muammolarni paydo qilishi mumkin.

Bugun yer yuzidagi barcha davlatlar oldida turgan asosiy vazifa: uglevodorod yoqilg‘ilar iste’molini keskin cheklash, o‘rmonlarni asrash va yerlarni cho‘llanishdan saqlab qolishdir. Bu borada Yevropa mamlakatlarida ibratli ishlar qilinmoqda. Daryolarni toza saqlash, ichki yonuv dvigatellaridan voz kechish va qayta tiklanuvchi elektr manbalaridan foydalanish singari sayyoramiz hovurini tushiradigan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xitoy va Hindiston singari rivojlanayotgan davlatlarda ham bu borada havas qilguli qadamlar qo‘yilmoqda. Masalan, Yevropada shamol va dengiz mavjlaridan elektr energiyasi olish borasida katta yutuqlarga erishildi. Xitoy va uning atrofidagi mamlakatlarda ko‘plab quyosh elektr stansiyalari qurilmoqda. Bu jabhada katta investitsiyalar safarbar etilmoqda. Albatta, bu xarajatlar bir-ikki yilda o‘zini qoplamasligi ham mumkin. Biroq uzoq davr miqyosida olib qaraganda, ushbu ezgu ishlar kelajakda, shubhasiz, o‘z samarasini beradi.

Iqlimning doimiy isib borishi, ayniqsa, bizning Markaziy Osiyo mintaqamizda kuchli sezilmoqda. Orol dengizi deyarli qurib bitdi, daryolarimizning sathi yildan yilga pasayib bormoqda. Gidrologlarning bergan ma’lumotiga ko‘ra, yerosti suvlari zaxirasining ham kamayganligi kuzatilmoqda. Pomir tog‘laridagi asriy muzliklarning uchdan bir qismi allaqachon erib tugagan. Hatto buloqlar suvining sezilarli darajada kamayganligi bilinmoqda. Bularning barisi kelajakdagi katta noxushliklardan darak berayotir. Suvning kamayishi endi uning har bir tomchisidan tejab-tergab foydalanish lozimligini bizga qayta-qayta eslatmoqda. Hozircha bu borada katta muammolar paydo bo‘lganicha yo‘q. Ammo bu kelajakda ham shunday bo‘lib qoladi degani emas. Shu ma’noda, Markaziy Osiyo davlatlari mavjud yer-suv resurslaridan baqamti, oqilona va unumli foydalanishlari zarur. Shu bilan birga, ekinlarni tejamkor texnologiyalardan foydalangan holda sug‘orish, daraxtzorlarni ko‘paytirish, cho‘llanishning yo‘lini to‘sish, uglevodorodlar iste’molini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish shular jumlasidandir. Bu borada bizga atom energiyasi yordam beradimi, degan savol hozir ko‘pchilikni o‘ylantirmoqda. Olimlarning fikricha, atom energiyasidan o‘tish bosqichi sifatida foydalanish mumkin ekan. Chunki atom elektr stansiyalari qanchalik toza tuyulmasin, ularda xatar ehtimoli hamisha saqlanib qoladi. Chernobil va Fudziyamada sodir bo‘lgan noxush texnogen falokatlar buni yaqqol ko‘rsatib qo‘ydi. Ekologik jihatdan xavfsiz hisoblangan termoyadro energiyasidan foydalanish esa hali uzoq kelajakning ishi. Chunki hozircha uning mukammal texnologiyalari yaratilgan emas.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh kotibi Antoniu Guttereshning bu boradagi fikrlari kishida iliq umidlar uyg‘otadi. Uning aytishicha: "Vaziyatni tuzatish imkoniyati hali ham mavjud. Bunday holatlar insoniyat tarixida avvalgi zamonlarda ham sodir bo‘lib turgan. Ammo global isish oqibatida tabiiy ofatlarning kuchi va chastotasi yildan yilga oshib bormoqda. Bundan biror bir qit’a yoki mintaqa chetda qolmayapti. Anomal yuqori harorat, qurg‘oqchilik, to‘fon va bo‘ronlarning ko‘payishi yer yuzida ommaviy falokatlarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi paytda tabiiy ofatlarning 90 foizi iqlim o‘zgarishi oqibatida yuzaga kelmoqda. Ulardan dunyo iqtisodiyoti har yili taxminan 520 milliard AQSh dollariga teng miqdorda zarar ko‘rmoqda. Buning natijasida 26 million kishi qashshoqlik domiga tushib qolmoqda.

Iqlim o‘zgarishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka ham soya solmoqda. U tufayli mamlakatlar orasida yer va suvdan foydalanish, oziq-ovqat ta’minoti borasida jiddiy raqobat hamda ziddiyatlar paydo bo‘lmoqda. Afrika va Janubiy Amerikadagi davomiy qurg‘oqchilik, bu qit’alardagi siyosiy beqarorlik va zo‘ravonliklarning bevosita sababiga aylanib qoldi. Xalqaro bankning ma’lumotiga ko‘ra, Yer kurrasining janubiy mintaqalaridagi iqlim o‘zgarishi ishsizlar sonini 140 million kishiga ko‘paytirgan. Natijada millionlab aholi o‘z yashash joylarini tark etishga majbur bo‘lmoqda va bu jarayon tobora kuchaymoqda.

Biroq vaziyat qanchalik xatarli tus olayotgan bo‘lmasin va olimlar bu haqda tushkunlik ohangida gapirmasinlar, haliyam vaziyatni o‘nglashga imkon bor. Buning uchun jamiyatlar hayoti va faoliyatini tubdan tuzatish lozim. Ayniqsa, yer-suvdan foydalanish, oziq-ovqat yetishtirish va tashish, tovarlar almashinuvi hamda energiya hosil qilishning oqilona usullariga o‘tish global isish oqibatlarini yumshatadi. Garchand texnologiyalar rivoji iqlim o‘zgarishining kuchayishiga sabab bo‘lsada, yangi samarali texnologiyalar global isishni sekinlashtirishi mumkin. Hozir yangi texnologiyalarni qo‘llab atmosfera va atrof muhitga chiqarilayotgan chiqindilar miqdorini 70 foizgacha kamaytirish mumkin. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishga solish, elektromobillar sonini ko‘paytirish, chiqindilarni qayta ishlash bu borada sezilarli natija beradi. Bularning barisi ona Yerimizni kelajakda ham yashil sayyora bo‘lib qolishiga imkon yaratadi.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

6850 nafar bola “sariq kasal”ni yuqtirib olgan

Viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, viloyatda joriy yilning o‘tgan 11 oyi davomida ro‘yxatga olingan 39 turdagi yuqumli kasalliklardan 16 turi qayd etilgan.

Jumladan, qizamiq, zaxm, gonariya, qo‘tir va yana ikki turdagi yuqumli kasalliklar soni oshgan.

- Epidemiologik retrospektiv tahlillar natijasiga ko‘ra, joriy yilning 11 oyida 7860 holatda o‘tkir yuqumli ichak kasalliklari aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 15,7 foizga kamaygan, - deydi viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Zoyir Mo‘minov. - Shuningdek, ushbu davrda 9854 holatda virusli gepatitning “A” turi aniqlangan va o‘tgan yilga nisbatan kasallik 23 foizga kamaygan. Biroq Narpay, Samarqand, Paxtachi va yana bir nechta tumanlarda kasallik soni ko‘paygan. Virusli gepatitni yuqtirganlarning 6850 nafarini maktab va bog‘cha yoshidagi bolalar tashkil etmoqda. Hozirda bunday kasallik bilan og‘rigan bemorlar alohida izolyatsiya qilinib, davolash va vaksinatsiya ishlari olib borilmoqda.

Ta’kidlanishicha, virusli gepatitning “A” turini bolalar yuqtirib olishining asosiy sababi – aksariyat maktab va bog‘chalar hamda ushbu ta’lim muassasasidagi hojatxonalar, qo‘l yuvish moslamalari sanitariya-gigiyena talablariga javob bermasligidir. Shu bilan birga, viloyatda milliy emlash kalendar rejasi asosida 13 turdagi kasallikka qarshi 90 foizdan ziyod aholi emlangan. Biroq virusli gepatitga qarshi emlash mazkur dasturga kiritilmagan. Shu bois ota-onalarning o‘zi farzandlarini virusli gepatitga qarshi emlatgani maqsadga muvofiq.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, virusli gepatitga qarshi kurashishning asosiy choralaridan biri emlash bo‘lib, bolalarni 18 oylikdan 14 yoshgacha emlash mumkin. Bir marta kasallikka qarshi emlangan kishi 15-20 yilgacha gepatitdan himoyalanadi.

F.FAXRIDDINOV.



REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Sayfullayeva Tamara Radjabovnaga (2020-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Djabarov Xalmurodga (2024-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko‘chasi, 62-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Ergasheva Klara Kanoyevnaga (2024-yil 9-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Pardayev Mehriddin Muhiddin o‘g‘li notarial idorasida marhum Qurbanov Safarga (2013-yil 31-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Pardayev Mehriddin Muhiddin o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Narpay tumani “Alisher Navoiy” MFY, Amir Temur ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Gafurov Baxrullo Xodiyevichga (2013-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Shamsiyeva Nodira Kamarovnaga (2024-yil 11-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Murtazayev Ulug‘bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Adilova Maysaraga (2024-yil 24-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Igamkulov Oybek Primovichga (2024-yil 15-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Mardiyev Xalil Jalilovichga (2021-yil 5-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Kattaqo‘rg‘on tuman hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi davlat muassasasining (STIR: 202545192) dumaloq muhri yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Mulohaza uchun mavzu

Hamma tadbirkor bo‘lolmaydi. NEGA?

Hamma tadbirkorlik qilishni, o‘z biznesi, ishlab chiqarishiga ega bo‘lishni istaydi. Bu istak zamirida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, vaqtiga o‘zi egalik qilish kabi istaklar va albatta, manfaatdorlik yotadi.
Odamlar o‘z tadbirkorligini boshlashni orzu qiladi. Biroq har qanday tadbirkorlik jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Orzuni ro‘yobga chiqarish uchun barcha xatarlarni, mehnat qiyinchiliklarini va vaqt resurslarini baholash, majburiy xarajatlarni hisoblash kerak. Xo‘sh, tadbirkorlikni ochish uchun ishni nimadan boshlagan ma’qul?



Soha yetakchilarining tajribasiga ko‘ra, birinchidan, yo‘nalishni aniqlab, nimani yaxshi tushunishingiz haqida o‘ylab ko‘ring. Shunda yangi g‘oyalarga ega bo‘lishingiz va ehtimoliy xatolarning oldini olishingiz mumkin. Asosiysi, o‘zingizni va vaqtingizni bag‘ishlamoqchi bo‘lgan tadbirkorlik sizni xursand qilishi kerak. Bu, sizning tadbirkorligingiz foydasi uchun xizmat qiluvchi asosiy sabablaridan biri. Bozorni sinchkovlik bilan kuzatib boring, qaysi mahsulot yoki xizmatlar mijozlaringiz orasida mashhur bo‘lishini, raqobatchilar nimani taklif qilishini va o‘zingizning kuchli tomonlaringizni tahlil qiling. Shuni esda tutingki, tovarlar yoki xizmatlarning arzonligi yagona afzallik bo‘lmasligi kerak.

Ikkinchidan, biznes reja batafsil tuzilgan bo‘lishi va siz taqdim etayotgan xizmatlar bozori yoki siz ishlab chiqarish va sotishni rejalashtirgan tovarlar tahlilini o‘z ichiga olishi kerak. Tadbirkorligingizning raqobatbardosh ustunliklarini, qaysi reklama vositalaridan foydalanishingizni, kelgusida yuzaga keladigan xarajatlar va boshqa muhim ma’lumotlarni batafsil hisoblang. Agar siz tadbirkorlikni endigina boshlayotgan bo‘lsangiz, ishingizga haqiqatda kattaroq joy ehtiyojini sezguningizgacha uyda ishlashni o‘ylab ko‘ring. Shunday qilib, siz binolar, mebellar va boshqa ko‘p narsalarning ijarasidan tejab qolasiz.

Uchinchidan, tadbirkorlikni yangi boshlaganingizda, kredit yoki qarz olishdan yiroq bo‘ling. Kichik bo‘lsa ham, o‘z kapitalingiz bilan boshlashga harakat qiling, chunki tadbirkorlik muayyan xavflarni o‘z ichiga oladi. Agar boshlagan ishingiz o‘xshamasa, siz tadbirkorligingizni yopishingiz va kredit to‘lovlarini to‘lashingiz kerak bo‘ladi. Kredit - bu katta mas’uliyat!

MUVAFFAQIYATGA OSON VA TEZ ERISHILMAYDI

Ish boshlayotgan ko‘p tadbirkorlar o‘z bizneslarini boshlashlari bilanoq hamma narsa soat mexanizmiga o‘xshab yurib ketishi kerak, deb o‘ylaydi. Ammo tadbirkor qiyinchiliklar va umidsizliklarga tayyor bo‘lishi kerak.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, negadir odamlar o‘z biznesini rivojlantirishga qattiq mehnat qilishdan ko‘ra, kimningdir biznesida yuqori lavozimga erishish uchun ko‘proq harakat qilishga tayyor. Misol, o‘zingiz hozirgi mavqeingizni egallash uchun qancha vaqt va kuch sarflaganingizni eslaysizmi? Universitetda o‘qish yillari va qo‘shimcha kurslar, amaliyotlar, jamoada ishlash va rahbarlar bilan muloqot qilish qoidalarini o‘rganish, kasbiy mahoratni doimiy ravishda oshirish va hokazo. Shunday ekan, nima uchun o‘z biznesiga ega bo‘lish insonga oson tuyuladi?

Tadbirkorlik aslida kapital sarflab, tovar va xizmatlar yaratish bilan foyda topishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat, biznesning asosiy turi. Tadbirkorlik noyob qobiliyat, yer, mehnat, kapital, axborotlar bilan bir qatorda iqtisodiyot va ishlab chiqarishning bosh omillaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik biznesga kiradi, lekin har qanday biznes tadbirkorlik bo‘lavermaydi. Biznesda tovar va xizmatlar yaratilib, bozordagi talab qondirilganda, tadbirkorlik faoliyati yuzaga keladi.

Tadbirkorlik bozor talabiga ko‘ra mustaqil iqtisodiy faoliyat olib borish, foyda olishdan iborat maqsadga ega bo‘lish, iqtisodiy mas’uliyat va majburiyatni o‘z zimmasiga olib, tavakkaliga ish qila bilish, yangilikka intilish, belgilangan qonun-qoidalarga rioya qilish, tadbirkorlik sirini saqlash, ijtimoiy mas’uliyatni his etish, ya’ni o‘z jamoasi, xalqi farovonligini ta’minlashni o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishi deb bilish va boshqa tamoyillarga tayanadi. Tadbirkorlik biznes sifatida asosan, sanoat, agrar va servis sohalarida kechadi va mulkiy jihatdan 4 xil ko‘rinishga - davlat tadbirkorligi, xususiy tadbirkorlik, jamoa tadbirkorligi va aralash tadbirkorlikka bo‘linadi. Ish ko‘lami jihatidan kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlikka bo‘linadi. Ular bir-biridan kapital miqdori, ishlovchilar soni, yaratilgan mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati (hajmi) va olingan foyda miqdoriga qarab farqlanadi.

DUNYODA TADBIRKORLAR SONI QANCHA, BIZDA-CHI?

Yer yuzida tadbirkorlik bilan aholining 8-10 foizi shug‘ullanadi, xolos.

Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda yurtimizda ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 344 mingdan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich qariyb 609 mingtaga yetgan. Endigi vazifa xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, bu orqali mamlakatda 2026-yil yakuniga qadar ishsizlik darajasini kamida 2 barobarga qisqartirish, minglab ishsiz yoshlarga yangi ish o‘rinlari yaratish lozim.

Yurtimizda ishbilarmonlikni rivojlantirish borasida gap ketganda, tadbirkor Zafar Hoshimov “Bizda tadbirkor bo‘lish oson, buning uchun maqsad sari intiluvchan, qiziquvchan, o‘ziga ishonuvchan, sharoitlarga tez moslashuvchan bo‘lish sifatlarini o‘zida mujassam etsa, yetarli”, degan fikrni bildiradi.

Iqtisodchi Behzod Hoshimovga ko‘ra, muammo tadbirkorlar soni kamligida emas, balki mavjud korxonalarning juda kichikligida.

Dunyoda eng ko‘p tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan jamiyatlar, Uganda, Misr, Iordaniya hisoblanadi, - deb yozadi B.Hoshimov. - Ularda aholiga nisbatan tadbirkorlar soni AQShdagidan ko‘p. Ularda 35 foiz odam tadbirkor, AQShda bu ko‘rsatkich 4,5-6,5 foizni tashkil etadi. Lekin AQSh Ugandadan boyroq. Rivojlanayotgan dunyoda asosiy muammo qaysidir odam tadbirkorlik bilan shug‘ullanish yoki shug‘ullanmasligida yoki uni tadbirkorlikka undashda emas.

Bizda firmalarning hajmi oshishi kerak. Tadbirkorlarni subsidiyalar va davlat xarajatlari orqali rag‘batlantirish siyosati esa bunga aks ta’sir qiladi. Ya’ni, bankdagi bor moliyaviy resurslar samaradorligi eng past insonlarga subsidiyalar orqali arzonroqqa tarqatilmoqda. Resurslar eng kerak bo‘lib turgan tadbirkorlarga esa berilmayapti. Maqsadimiz yurtimizda tadbirkorlar sonini ko‘paytirish emas, mamlakatni boy qilish bo‘lishi kerak. Albatta, mamlakatlar tadbirkorlar orqali boy bo‘ladi. Lekin nyuans shundaki, mamlakatdagi barcha odamlar tadbirkor bo‘lib qolsa, mamlakat boyib qolmaydi”.

Har bir kishi o‘zida mavjud iqtidordan kelib chiqib, tadbirkorlik yo‘nalishini tanlashi kerak. Yana savdo brendi, do‘kon, firma, kompaniya va hokazolarga nom qo‘yayotganda qisqa, talaffuzga qulay, jarangdor, esda qolarli, imkoni boricha, yettitagacha harfdan iborat bo‘lgan nomlar tanlansa, yaxshi bo‘ladi. Bu dunyo marketologlarining o‘rganishlari natijasida aniqlangan. Agar nomlar o‘z tilimizda bo‘lsa, yana ham yaxshi. Chunki siz va biz bilgan dunyo brendlari ham o‘z tillarida biror ma’noni anglatadi yoki ism-sharifining qisqartmasidan olingan. Shu bois savdo brendingiz avvalo, ichki bozorda ishonchni oqlab, mashhur bo‘lishi kerakligini hisobga oling.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.

Har so‘zi ibrat



Mahalla raisining keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchisi lavozimiga eng faol keksa nuroniy saylanadi. Ushbu vazifadagi otaxon kelishuvimizga ko‘ra, mahalla markazi yoki nuroniylar choyxonasiga qirqqa yaqin keksa otaxonu onaxonlarni to‘plab turgan ekan.

Aytilgan vaqtda davra suhbatini boshladik. Bu jamoa bilan uchrashmaganimizga ancha bo‘lgan. Chunki shaharda mahalla ko‘p. Har kuni ikkita mahallaga borgan taqdirimda mazkur mahallada yana qayta uchrashuvimiz uch-to‘rt oyga cho‘zilishi mumkin. Lekin nuroniylar bilan uchrashganda go‘yo kuni kecha yuz ko‘rishgandek taassurot paydo bo‘ladi. Bu ko‘ngillar yaqinligidan bo‘lsa kerak.

O‘tgan vaqt davomida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar qanday natija berayotgani haqida qisqacha gapirib beraman. Katta marrani ko‘zlab boshlangan ishlar bizni quvontiradi. Har bir sohada oldinga siljish bor.

Keksa avlod vakillariga ham vazifa qo‘yilganmi? Jamiyat rivoji uchun ular nima qilishi kerak? Bu savollar ularni hushyor tortiradi. Davradagilar bir dam tikilib, gapni nimadan boshlashni bilmay, jim turishganidan sezaman.

- Yoshlarga nasihat berishimiz kerak, – deydi bir otaxon.

- To‘g‘ri, – gapini ma’qullayman.

- To‘y-marakalarni ixchamlashtirish lozim. Isrofgarchilik ko‘p.

- Juda to‘g‘ri. Yana...

Otaxon-onaxonlar jonlanadi. Maktabga borib, o‘quvchilar davomati ko‘zdan kechirilgani, mahallada tashkil etilgan “Buvijonlar maktabi” a’zosi bo‘lgan ikki onaxon o‘z hududida yangi tashkil etilgan nodavlat ta’lim muassasasi, bolalar bog‘chasidagi ahvol bilan tanishgani, oilaviy ajrimlar borasida olib borilayotgan ishlar yaxshi natija berayotgani, “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyili yoshlar tarbiyasida muhim rol o‘ynayotgani haqida gapirib beradi.

Suhbatni nuroniylarning maktab va maktabgacha ta’lim muassasalaridagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha qilingan ishlaridan boshlasak, deb taklif bildiraman.

Ma’lum bo‘ladiki, nuroniylar maktab sinflariga kirib, darsga nechta o‘quvchi qatnashayotganini aniqlagan. Sinf rahbaridan o‘quvchining darsga kelmagani sababini so‘ragan. Ahvolni direktorga ma’lum qilgan.

Aslida o‘quvchilarning bir necha kundan buyon dars qoldirayotganini sinf rahbari ham, direktor ham biladi. Ular ayrim o‘quvchilarning bu qoidabuzarliklari yuzasidan chora ham ko‘rishgan, uyiga borgan, ota-onasini ogohlantirishgan. O‘quvchining darsga qatnashmayotganini sinf rahbari yoki direktorga aytish bilan ish bitmaydi. Aksincha, ularga yordam berish kerak. Masalan, maktablardagi davomatni yaxshilashga Milliy gvardiya xodimlari jalb qilingan. Darsga kelmagan o‘quvchining ota-onasiga chora ko‘rilgan. Lekin bu nazorat jamoatchilik tomonidan amalga oshirilsa, dars qoldirgan o‘quvchining ota-onasiga farzandining maktabdagi nojo‘ya xatti-harakati bo‘yicha tanbeh berilsa, ular bolasi uchun o‘zidan ko‘ra boshqalar ko‘proq qayg‘urayotganini anglab yetadi. E’tiborsiz qoldirilgan bola erta-indin faqat ota-onasiga emas, mahallaga tashvish olib keladi. Bu haqiqatni keksalar dars qoldirgan o‘quvchining ota-onasiga ma’lum qilishsa, ta’siri kuchli bo‘ladi.

Yoki “Buvijonlar maktabi” guruhi a’zolarining bolalar bog‘chasiga borib, kamchilik izlashi ham tashkilot mudirasi yoki tarbiyachilar uchun yoqimli holat emas. Lekin nuroniylar bog‘chalarda tarbiyachining bolalarga qo‘pol munosabatda bo‘layotgani, bolalarga berilayotgan taomlarning sifatini nazorat qilib tursa, nafsiga qul bo‘lgan xodimlar insofga chorlansa, foydadan xoli bo‘lmaydi.

- Kimning nevarasi maktabda o‘qiydi? – savol beraman nuroniylarga.

– Ayting-chi, nevarangiz o‘qiydigan maktabga kirib, qanday ta’lim olayotgani bilan qiziqdingizmi?

Barcha jim. Nahotki nevarasining qanday o‘qiyotgani bobo yoki buvini qiziqtirmasa? Maktab uzoqda emas, mahalla hududida joylashgan. Bu ishni bajarishga ko‘p vaqt ketmaydi-ku?! Nevarasining sinf rahbariga uchrab, avvalo, unga rahmat aytib turilsa, o‘qituvchining mas’uliyati oshadi. Chunki bolaning qanday bilim olayotganiga yaqinlarining qiziqishi o‘qituvchining ta’lim berish darajasi ortishiga ta’sir ko‘rsatadi. Nazoratni his qilgan o‘qituvchi o‘z ustida ko‘proq ishlaydi.

- Nevarangizning do‘sti kim ekanini bilasizmi? – so‘rayman yana.

Buyam otaxon, onaxonlarni o‘ylantirib qo‘yadi. Bolaning kim bilan do‘stlashgani hayotida muhim o‘rin tutadi. Shunday ekan, bolaning eng yaqin do‘sti, avvalo, ota-onasi va bobo-buvisi bo‘lishi kerak. Ammo bu “do‘stlar” qancha vaqtini bola bilan muloqot qilishga sarflaydi? Kattalar yoshlarning gapiga quloq soladimi? Tan olishimiz kerak, biz, kattalar yoshlarga ko‘proq gapirgimiz keladi. Lekin inson ruhiyati shundayki, u o‘zini tinglaganni yoqtiradi. Shuning uchun farzandga gapirishdan avval uning nimaga qiziqishi, kimni yoki nimani yoqtirishiga e’tibor berish kerak. Jigarbandingiz hali bola yoki o‘spirin. Keksa bilgan narsalarga hali uning aqli yetmaydi. Shu bois bolaning yoshini hisobga olib, u bilan muloqotga kirishing. Bolaning keksalar yonida bo‘lishni istashi, sizga talpinishi, sizni o‘ziga yaqin olishi, do‘stlashishi faqatgina unga bog‘liq emas, sizning unga bo‘lgan e’tiboringizga, ishonchingiz, g‘amxo‘rlik ko‘rsatishingizga ham bog‘liq. Demak, bola o‘zini sizdan olib qochsa, ichidagini aytmasa, uyida emas, ko‘proq ko‘chada bo‘lishni afzal ko‘rsa, ayb sizda.

Otaxon-onaxonlar bilan bir soatlar chamasi suhbatlashamiz. Bu vaqtdan ortig‘i ayrim keksalarni toliqtirib qo‘yadi. Koshki bunday suhbatlar tez-tez bo‘lib tursa, deyishadi ba’zilar. Marhamat, har kuni yig‘ilib turinglar, deyman ularga. Kamchiliklar bor, ularni o‘zaro muhokama qilib, yechimini topish kerak. Har bir muammoni o‘zimiz hal etmasak, chetdan kimdir kelib bartaraf etmaydi.

Nuroniylar bilan xayrlashar ekanman, har bir keksa avlod vakili qilishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalarni eslatib o‘taman:

- Har kuni ertalab nevaralar bilan yuz ko‘rishing. Dasturxon boshidami, bog‘cha yoki maktabga kuzatish vaqtimi, bolaning chaqnab turgan ko‘zlariga qarab, u kim ekanligini yodiga soling. U mana shu buyuk zaminda yashab o‘tgan allomalarning avlodi ekanini har kuni eshitsin. Buyuk ajdodlarimiz ishini davom ettirish, ona Vatanimizni farovon va obod etish uning zimmasida ekanini qayta-qayta takrorlang. Toki bu gaplar uning yuragiga yetib borsin, murg‘ak ongiga chuqurroq singsin!

Xurshid NURULLAYEV,
“Nuroniy” jamg‘armasi Samarqand shahar bo‘limi raisi.

Past Darg‘omda madaniyat sohasidagi muammolar qachon hal etiladi?

Bugungi kunda viloyatdagi 80 ta madaniyat markazidan 62 tasi o‘z binosiga ega bo‘lsa, 18 tasida bino yo‘q, hududlardagi aksariyat madaniyat markazlari ta’mirtalab, moddiy-texnik bazasi yaxshi emas, kadrlar bilan bog‘liq muammolar bor.



Past Darg‘om tumani madaniyat bo‘limi faoliyati bilan tanishganimizda ham shu kabi muammolar haqida eshitdik.

- Madaniyat bo‘limi tasarrufida 3 ta musiqa va san’at maktabi, 8 ta madaniyat markazi faoliyat yuritadi, - deydi tuman madaniyat bo‘limi badiiy rahbari Eshmurod Abro‘yev. – Ularda 30 ga yaqin to‘garak, ansambl va musiqiy guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Yoshlarimiz viloyat va respublika tanlovlarida faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Shu bilan birga, xodimlarimiz ham tumanda tashkil etilayotgan madaniy-ma’rifiy va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etishmoqda. Tizimda yutuqlar bilan birga, yechimini kutayotgan muammolar ham bor. Jumladan, tumandagi barcha madaniyat markazlarida isitish tizimi ishlamaydi. Chunki isitish qozonlari gaz bilan isitishga mo‘ljallangan, lekin gaz yo‘q. Ko‘mir berilgan, biroq isitish uchun qozonlarni ham shunga moslashtirish kerak.

Tumandagi Navro‘z mahallasida joylashgan 60-madaniyat markazi avariya holatida, madaniyat markazlarida teatr tomoshalari va spektakllar qo‘yish uchun xoreografiya zallari, to‘garak xonalari va media apparatlar yetishmaydi. Xodimlarning maoshi kam, oliy ma’lumotli kadrlarga ehtiyoj bor, tashkilotlar va mahallalardagi tadbirlarni o‘tkazish uchun madaniyat bo‘limi hamda madaniyat markazlari bilan shartnoma qilinmagan.

Darvoqe, mazkur tumanga safarimiz davomida tuman hokimligidan ijtimoiy soha obyektlariga taalluqli ma’lumotlarni ololmadik va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lumot beradigan mas’ul ham topilmadi.

F.RO‘ZIBOYEV.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 14-dekabr, shanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 407 nusxada chop etildi. Buyurtma 651. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: G‘.HASANOV.
Navbatchi: O‘.XUDOYBERDIYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda